

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA "TARBIYA" FANINI O'QITISHDA SO'FI OLLOYOR IJODIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK AHAMIYATI**Shoyimova Nigora Normumin qizi****Xurramov R.S.**

Ilmiy rahbar. Termiz davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17829026>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida "Tarbiya" fanini o'qitishda So'fi Olloyor ijodidan foydalanishning didaktik ahamiyati yoritiladi. Qolaversa, mumtoz adabiyot namoyandasi hisoblangan So'fi Olloyorning axloqiy-ma'rifiy mazmundagi asarlarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirishdagi o'rni asoslab beriladi. Ayniqsa, "Sabotul ojizin" kabi pand-nasihat ruhidagi asarlar orqali odob, halollik, sabr, tavoze, zakovat va ma'naviy poklik kabi fazilatlarni o'rgatishning samaradorligi tahlil qilinadi. So'fi Olloyor nasihatlarining sodda va ta'sirchan tilda ifodalanishi kichik yoshdagi o'quvchilarning idrokiga mos bo'lib, tarbiya darslarida mavzularni obrazli tushuntirish, interfaol metodlarni qo'llash, o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtirishga keng imkon yaratishi ta'kidlanadi. Maqolada shuningdek, shoir ijodining tarbiyaviy ahamiyati orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy merosni anglash va yaxshi xulq ko'nikmalarini shakllantirish jarayonining didaktik jihatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: So'fi Olloyor, mumtoz adabiyot, "Sabotul ojizin", tarbiya, boshlang'ich ta'lim, didaktik yondashuv, axloqiy tarbiya, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, pand-nasihat, ta'lim jarayoni, badiiy meros, shaxs kamoloti, o'quvchi faoliyati, pedagogik ahamiyat va boshqalar.

Annotation. This article highlights the didactic significance of using Sufi Olloyor's works in teaching the subject of "Education" in primary education. In addition, the role of the works of Sufi Olloyor, a representative of classical literature, in the formation of spiritual and moral concepts in primary school students is substantiated. In particular, the effectiveness of teaching such qualities as decency, honesty, patience, humility, intelligence and spiritual purity through works of admonition such as "Sabotul ojizin" is analyzed. The expression of Sufi Olloyor's advice in a simple and expressive language is suitable for the perception of young students, and it is emphasized that in educational lessons, it is possible to explain topics figuratively, use interactive methods, and activate the thinking process of students. The article also reveals the didactic aspects of the process of forming respect for national values, understanding of spiritual heritage, and good moral skills in students through the educational significance of the poet's work.

Key words: Sufi Olloyor, classical literature, "Sabotul ojizin", upbringing, primary education, didactic approach, moral upbringing, spiritual and moral values, advice, educational process, artistic heritage, personal development, student activity, pedagogical significance, etc.

Аннотация. В данной статье рассматривается дидактическое значение использования произведений суфия Оллоёра в преподавании предмета «Образование» в начальной школе. Обосновывается роль произведений суфия Оллоёра, представителя классической литературы, в формировании духовно-нравственных представлений у учащихся начальной школы. В частности, анализируется эффективность воспитания таких качеств, как порядочность, честность, терпение, смирение, интеллект и духовная чистота через произведения-наставления, такие как «Саботул оджизин».

Выражение советов суфия Оллоёра простым и выразительным языком доступно для восприятия младших школьников, подчёркивается, что на уроках образования возможно образное объяснение тем, использование интерактивных методов и активизация мыслительной деятельности учащихся. В статье также раскрываются дидактические аспекты процесса формирования у учащихся уважения к национальным ценностям, понимания духовного наследия, высоких нравственных качеств через воспитательное значение произведений поэта.

Ключевые слова: *Суфи Оллоёр, классическая литература, «Саботул оджизин», воспитание, начальное образование, дидактический подход, нравственное воспитание, духовно-нравственные ценности, советы, образовательный процесс, художественное наследие, личностное развитие, деятельность учащихся, педагогическое значение и т. д.*

Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchilar shaxsining ma'naviy-axloqiy shakllanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Bu bosqichda o'qitiladigan "Tarbiya" fani nafaqat axloqiy bilimlarni, balki xulqiy mezonlarni shakllantirish, yaxshi odatlarga yo'naltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish vazifasini ham bajaradi. Mazkur jarayonda mumtoz adabiyot namunalaridan, xususan, So'fi Olloyor ijodidan foydalanish o'quvchilarda tarbiyaviy tushunchalarni chuqurroq anglash, ularni hayotiy mazmun bilan bog'lash va yoshlar qalbida ezigu fazilatlarni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida yashab o'tgan, So'fi Olloyor arab, fors va o'zbek tillarida nodir kitoblar yozib qoldirgan, dinimiz va adabiyotimiz tarixidan munosib o'rin egallagan ulkan ijodkordir. So'fi Olloyor nafaqat shoir yoki tariqat shayxi, balki, u zot yirik faqih, shariat ilmlarining bilimdoni va targ'ibotchisidir. Barcha asarlari odamlarga haqiqiy islomni tushuntirish, dinu diyonatga boshlash, odob-axloqni o'rgatish va sof tasavvuf yo'lini tutishga qaratilgandir.

So'fi Olloyorning kitoblari ichida eng salmoqlisi "Maslakul-muttaqin" ekanligi ulamolarimiz tomonidan tan olingan. Chunki, unda yuzdan ortiq fatvo kitoblaridan foydalanilgan. Ko'p masalalarning fatvo va taqvo jihati ko'rsatib berilgan. Shuning uchun ham kitobda "Fatvo va taqvo bayon" etilganligi ta'kidlangan. Kitobning bir qancha musulmon davlatlarida chop bo'lganligi va bu asarga maxsus lug'atlar, hatto arabcha sharhlar bitilganligi ham yuqoridagi fikrlarimizga dalildir. So'fi Olloyor fiqhiy masalalarni bayon qilish jarayonida oyat va hadislardan dalil keltiradi. To'rt mazhab imomlarining qarashlaridagi farqlarga ham to'xtaladi. Har bir masalaning hanafiy mazhabidagi fatvosiga to'xtalar ekan, taqvo hamda odob jihatlarini ham eslatib o'tadi. Sir emas, bugungi kunda ko'pchilik ibodatning xos odobi va maxsus duolarini yaxshi bilishmaydi. Mazkur kitob ana shu jihatlar bilan ham ahamiyatlidir.

So'fi Olloyorning o'ziga xos bayon uslublaridan biri, u zot qaysi bir masalaga murojaat qilmasin, albatta, insonni oxirat hisob-kitobidan ogohlantirib turadi. Halol yashashga, axloqni tuzatishga, ilmga amal qilishga, bid'at-xurofotdan yiroq bo'lishga, xavfu rajo orasida yashashga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda oyat va hadis ma'nolarini she'rga solib kitobxonga nasihat qiladi. O'zbek adabiyotining zabardast siymolaridan biri, zullisonayn shoir, faqih naqshbandiya tariqatining yirik namoyondasi So'fi Olloyorning tug'ilgan yili haqida turli fikrlar bildirilgan.

Ilmiy tadqiqotlar va tazkiralarda qayd etilishicha, So'fi Olloyor taxminan 1630-1650 yillar orasida Samarqanddagi Kattaqo'rg'on bekligiga qarashli Minglar qishlog'ida Allohquli (Temiryor) xonadonida tug'ilgan. Umrining oxirida Surxondaryo viloyatining Denov qishlog'ida yashagan bo'lib, taxminan 1721 yilda vafot etgan va o'sha erda dafn etilgan.

Demak Soʻfi Olloyor XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida yashab, ijod etgan. Shuningdek u kishining aynan shu davrlarda yashab oʻtgan otashnafas, majzub shoir Boborahim Mashrab (1650-1711) bilan muloqot qilganligi ham manbalarda keltirilgan¹.

Manbalarda taʼkidlanishicha, Soʻfi Olloyor "Maslakul-muttaqin", "Murodul-orifin", "Sabotul-ojizin", "Maxzanul-mutiʼiyn" kabi asarlar yozgan. Baʼzi olimlar "Najotut-tolibin" va "Favzun-najot" kitoblarini ham Soʻfi Olloyorga nisbat beradilar.

Oktyabr inqilobiga qadar bu asarlar forsiy va turkiy tilda soʻzlashuvchi har bir moʻmin va musulmon tomonidan eʼzozlanib, oʻqib kelingan, ularga arabiy, forsiy va turkiy sharhlar bitilgan. Maxsus lugʻatlar tuzilgan. Ammo, afsuslar boʻlsinki, sovet davrida Soʻfi Olloyor ijodi diniy-mistik adabiyot tamgʻasi ostida taʼkiqlanib kelindi. Qayta qurish, oshkoralik, ayniqsa, jumhuriyatimiz Mustaqilligi sharofati bilan Soʻfi Olloyor ijodi ham keng targʻib etila boshlandi.

Asarlaridan baʼzilari nashr etildi. Hayoti va ijodiyoti ilmiy muomalaga kiritildi. Ulugʻ shoirning eng salmoqli asari "Maslakul-muttaqin" ("Taqqodorlar maslagi") deb nomlangan boʻlib, asar sheʼriy shaklda, fors tilida bitilgan. U fiqh yaʼni shariat qoidalari, eʼtiqod va axloq kabi masalalardan bahs etadi².

Soʻfi Olloyor sheʼriyati oʻzining didaktik yoʻnalishi, sodda tili, chuqur maʼno va axloqiy mohiyati bilan boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yosh xususiyatiga mos tushadi.

Uning asarlarida ezgulik, tavoze, mehr-shafqat, halollik, ilm, sabr, hayo kabi fazilatlarning talqini sodda va taʼsirli bayon etilgan boʻlib, bu "Tarbiya" fanining asosiy mazmuni bilan bevosita uygʻunlikda turadi.

Soʻfi Olloyorning "Sabotul ojizin" kabi asarlarida keltirilgan nasihatlar oʻquvchilarda odob-axloqning mohiyatini anglashda kuchli taʼsir koʻrsatadi. Mazkur badiiy-didaktik manba oʻqituvchi uchun amaliy tarbiyaviy material boʻlib xizmat qiladi: oʻqituvchi uni hikmat, misra yoki kichik baytlar tarzida darsga singdirishi mumkin. Bu esa axloqiy mavzularning quruq nazariya boʻlib qolmasligiga, balki hikmatli soʻzlar orqali oʻquvchilarga ruhiy taʼsir koʻrsatishiga imkon beradi³.

Bunday yondashuv kichik yoshdagi bolalarning obrazli fikrlashini rivojlantiradi, ularda badiiy matnni anglash, mazmunini tahlil qilish, hayotiy misollar bilan bogʻlash koʻnikmasini shakllantiradi. Soʻfi Olloyor asarlaridagi sodda tilda berilgan nasihatlar oʻquvchining idrokiga mos boʻlib, didaktik materialni yengil oʻzlashtirishga yordam beradi.

"Tarbiya" fanida Soʻfi Olloyor ijodidan foydalanishning yana bir muhim jihati – milliy oʻzlikni anglash va maʼnaviy merosga hurmat tuygʻusini shakllantirishdir. Oʻquvchilar mumtoz adabiy meros bilan erta yoshdan tanishgani sari ularda milliy qadriyatlarga qiziqish ortadi, maʼnaviy-axloqiy tushunchalar esa badiiy timsollar orqali mustahkamlanadi. Bu jarayonda oʻqituvchi Soʻfi Olloyor asarlarida uchraydigan ezgu fazilatlar, oʻzlikni tarbiyalash, nafsni tiyish, mehnatga hurmat, ilmga chanqoqlik kabi gʻoyalarni bolalarning kundalik hayoti bilan bogʻlab tushuntiradi. Natijada oʻquvchilar qoidalarni yod olish emas, balki ularga amal qilishning mohiyatini anglay boshlaydilar.

Didaktik nuqtayi nazardan qaraganda, Soʻfi Olloyor matnlari oʻquvchilarni mulohaza yuritishga, xulosa chiqarishga oʻrgatadi. Sheʼriy baytlarning muxtasar, lekin chuqur maʼnoli shakli oʻquvchini fikrlashga undaydi. Bu esa oʻquvchilarning nutqiy rivojiga, oʻz fikrini aniq ifodalashiga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

¹ Soʻfi Olloyor. Maslak ul-muttaqin. Toshkent. Mavarounnahr 2007. Dar miyoni viloyati islom. B-7

² Adizova Iqboloy. Oʻzbek mutoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan.2009.B-95

³ Soʻfi Olloyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent: Saʼnat jurnali.2007. B-14

O'qituvchi she'r misralaridan foydalanib bahs-munozara, rolli o'yin, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish kabi interfaol metodlarni qo'llashi mumkin. Bunday yondashuv tarbiya jarayonini faollashtiradi, o'quvchida mustaqil fikrlash va mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Shuningdek, o'quvchilar So'fi Olloyor hikmatlarini o'rganar ekan, undagi axloqiy kategoriyalarni – yaxshilik qilish, sabr-toqat, halollik, tavoze, adolat kabi tushunchalarni shaxsiy xulq-atvori bilan solishtira boshlaydi. Bu esa tarbiyaning asosiy maqsadi bo'lgan fazilatlarini hayotga tatbiq etish ko'nikmasini shakllantiradi. O'qituvchi esa ushbu jarayonda vositachi, yo'naltiruvchi, tushuntiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Bunday yondashuvda tarbiya jarayoni quruq pand-nasihat emas, balki badiiy obrazlar orqali ta'sirli va samarali o'rganiladigan jarayonga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, So'fi Olloyor ijodidan foydalanish boshlang'ich ta'limning "Tarbiya" fanida didaktik jihatdan juda katta ahamiyatga ega. Uning she'riy-tarbiyaviy merosi kichik yoshdagi o'quvchilarning axloqiy tushunchalarini boyitadi, ularni ezgulikka undaydi, badiiy tafakkurni rivojlantiradi va ma'naviy merosga hurmat ruhini singdiradi. Eng muhimi, So'fi Olloyor ijodi ta'lim jarayonini ma'naviy jihatdan boyitib, tarbiyaning ta'sirchanligini oshiradi.

Shu bois, ushbu manbadan muntazam, metodik asoslangan va yosh xususiyatlariga mos ravishda foydalanish boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adizova Iqboloy. O'zbek mutoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan. 2009. B-95
2. Mahbub Jamol Oqchurun "Sabot ul-ojizin" kitobi. //Sho'ro//. 1917.7-son.
3. So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. Toshkent: Sa'nat jurnali. 2007. B-14
4. Adizova Iqboloy. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan. 2009. B-96.
5. So'fi Olloyor. Maslak ul-muttaqin. Toshkent. Mavarounnahr 2007. Dar miyoni viloyati islom. B-7
6. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. O'zbekiston. 2006. B-81.